
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 7-8

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL ADABIYOT TA'LIM



Philological research: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 7-8

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.08.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, *iqtisod fanlari doktori, professor*

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, f.f.f.d. *(PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Amonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.08.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, *доктор экономических наук, профессор*

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*

Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*

Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*

Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*

Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*

Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*

Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*

Нормат Юлдашев, *к.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*

Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*

Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шоира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.08.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, *doctor of economic sciences, professor*

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, PhD, *associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Amonturdieva, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

МАМАТОВ АБДИ ЭШОНҚУЛОВИЧ
Инсон, тил ва маданият триадаси ёки маданият инсонга нима беради? 7

ASHIRBOYEV SAMIXON
«O‘zbek dialektologiyasi» fani ta’limi mazmuni uyg‘unligi 10

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalarning antropotsentrik lug‘atini tuzish tamoyillari xususida 14

МАМАТОВ АБДУҒОФУР
Фразеологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи 18

ELTAZAROV JO‘LIBOY
Gramer kategorilerin türkçenin dilsel doğasina göre yorumlanmasi üzerine 24

ISMOILOVA DILRABO MUHAMMAD QIZI,
HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXONOVICH
Ilmiy paradigma transformatsiyasi hamda konseptual asos 30

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH,
MAHMADIYEV SHAVKATJON SUYUNQULOVICH
Matnning pragmatik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi vositalar xususida 34

TO‘XTAYEVA DILAFRUZ ASHUROVNA,
JO‘RAYEVA BIBISH MUXSINOVNA
Baho va darajalanish munosabati 38

ABDIYEV MURODQOSIM
«Davlat tili haqida»gi va u bilan bog‘liq qonunlar ijrosi masalalari xususida 44

МЕНГЛИЕВ БАХТИЁР РАЖАБОВИЧ
Ўзбек лингвистик саноати истиқболлари 50

SHUKUROV OTABEK ULASHEVICH
Globallashuv sharoitida milliy til masalalari 56

FAYZIYEVA XADICHA CHORIYEVNA
Surxondaryo o‘zbek shevalarida o‘zlashgan so‘zlar 59

DUSTMURODOV MA’RUFJON MANSUR O‘G‘LI
Qadimgi turkiy tildagi markaziy hokimiyat bilan aloqador ayrim
harbiy unvonlar xususida 63

МУНДАРИЖА

Tilshunoslik

OSTONOV O‘TKIR YANGIBOEVICH
Qishloq turizmga oid terminlarning lingvistik tahlili 67

TILLABAYEVA ZILOLA RAXMATILLAYEVNA
Samarqand viloyati qarluq shevalarida olmoshlar 70

TEMIROVA KAMOLA
«O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati»da berilgan
gastronomik birliklarning semantik guruhlanishi 74

KURBONMURATOV ABROR
Ekstremistik matnda muallif belgilari 80

NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH
Taqlid so‘zlar orqali ifodalangan tovush va
harakat-holatning davomiylik semasi
(Tog‘ay murod asasrlari misolida) 83

CHORIYEVA CHAROS SALOMOVNA
Diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika:
tasnif va talqin muammolari 86

NURIDDINOVA NAFISA MUXIDDIN QIZI
O‘zbek tilida ayrim uzumchilikka oid leksikaning lingvokulturema sifatidagi talqini 89

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DINIY LEKSIKA, TASAVVUFIY LEKSIKA VA MIFOLOGIK LEKSIKA: TASNIF VA TALQIN MUAMMOLARI

Choriyeva Charos Salomovna,
Termiz davlat universiteti doktoranti

Yer yuzida insoniyat yaratilibdiki, din va unga bog‘liq qadriyatlar tizimi, tushunchalar zanjiri uning ruhiga, suvratiyu siyratiga payvasta bo‘lgan. Shu sababli ham butun olamning, unda barhayot bo‘lgan kishilar hayotining tamal toshi bo‘lib xizmat qilgan ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi abadiy kurashda insonlar har doim yolg‘iz Allohdan madad kutadilar, undan panoh so‘raydilar. Qadim zamonlardan din odamlarni boshqarish, ularni bitta maqsadga yo‘naltirish vositasi, qolaversa, bilim va tarbiya berishning ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilib kelgan. Diniy muloqot qadim zamonlardan yashab kelayotgan bo‘lsa-da, bu sohani ilmiy tadqiq qilishga bo‘lgan izlanishlar nisbatan yaqinlarda paydo bo‘ldi. Odam yaratilib, keyinchalik ongi o‘sib, rivojlanishining dastlabki taraqqiyoti davrlarida, hali o‘z aql-idroki, ilmi bilan qarorlar, farmonlar, qonunlar va mamlakatni boshqarish uchun Konstitutsiya ishlab chiqarmasidan oldin dunyoda har qanday holat din orqali tartibga solinar edi. Odamlar jamoa bo‘lib yashar ekan, o‘rtalaridagi har qanday munosabatni din asnosida hal qilishar edi, ilm-fan, odob-axloq, tarbiyani din orqali olishar edi. Shu sabablarga ko‘ra, diniy leksika barcha davrlarda kishilik jamiyatining muhim ajralmas qismi hisoblanib keladi[1].

Diniy leksikaning tadqiqiga doir izlanishlarni o‘rganish jarayonida shunga guvoh bo‘lamizki, diniy leksikaning ma’no-mazmun ko‘lami nihoyatda keng va ba’zi o‘rinlarda uni tasavvufiy leksika va mifologik leksikadan farqlash zarurati paydo bo‘ladi. O’zbek tilshunosligida diniy leksikaning tadqiqiga bag‘ishlangan dastlabki ish, shubhasiz, N.Uluqovga tegishlidir.[2] Olim o‘z tadqiqot ishida ekzotizmlar o‘z mazmun-mohiyati bilan matn mansub bo‘lgan xalq tili, tarixi, madaniyati, jug‘rofiyasi, toponimiyasi, ijtimoiy turmushi va dinini o‘rganishda muhim manba sanalishini, nutqda qo‘llanish darajasiga ko‘ra ekzotizmlar iste’mol doirasi chegaralangan leksikaga mansubligini qayd etadi. Darhaqiqat, har bir xalq, millat qaysidir dinga e’tiqod qiladi va millatning mentaliteti, urf-odati, qadriyatlar tizimi bevosita o‘sha din belgilab bergan mezonlarga ko‘ra shakllanadi. N.Uluqov mavzu doirasi va vazifaviy xususiyatiga ko‘ra ekzotizmlarni quyidagi yirik mavzuiy guruhlarga ajratadi: 1)ekzotik so‘zlar; 2)ekzotik atoqli otlar; 3) ekzotik frazeologiya.

Ushbu tasnif keng ma’nodagi umumiy tasnif bo‘lib, olim ekzotik so‘zlarni kichik mavzuiy guruhlarga bo‘lib ham tasniflagan. Ular quyidagilar: 1) inson tushunchasi bilan bog‘liq ma’no ifodalaydigan ekzotizmlar (keyingi o‘rinlarda E.); 2) hayvonlar nomini bildiruvchi E. 3) kiyim-kechaklar va taqinchoqlar nomini bildiruvchi E. 4) diniy tushuncha va tasavvurlar bilan bog‘liq ma’no ifodalovchi E. 5) daraxtlar va giyohlar nomini bildiruvchi E. 6) taomlar va ichimliklar nomini bildiruvchi E. 7) kasalliklar va ular bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi E. 8) o‘lchov, miqdor tushunchalarini ifodalovchi E. 9) musulmon huquqi bilan bog‘liq tushunchalarni ifoda etuvchi E. 10) diniy, mahalliy soliq va turli to‘lovlar nomini bildruvchi E. Inson tushunchasi bilan bog‘liq ma’no ifodalaydigan ekzotizmlar qatoriga olim muloanat (arabcha, zino qilganlikda ayblangan), ansoriy (yordamchi safdosh), mayyit, badaviy (arabcha, sahroyi, ko‘chmanchi; *Bir badaviy Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallamni ziyorat qilgani kelibdi. U bir qishloqdan, qabiladan, cho‘ldan kelgan odam.*), sahoba (suhbatdosh, hamroh, hammaslak) kabilarni kiritadi.

N.B.Mechkovskaya esa o‘z tadqiqotlarida diniy leksika tasnifini insonlarning diniy tasavvuriga muvofiq tasniflaydi. Tilshunos leksik birliklarning beshta turini ajratadi: birinchisi, Xudo (uning tarixi va xos xususiyatlarini) ifodalovchi diniy leksika; ikkinchisi, Xudoning irodasi, odamlarga nisbatan vasiyatlari va buyruqlarining tasavvurini ifodalovchi diniy leksika; uchinchisi, Xudoning tasavvuriga bog‘liq inson, jamiyat va borliqni ifodalovchi leksika; to‘rtinchisi, diniy-etik va diniy-huquqiy me’yorlarni ifodalovchi birliklar; beshinchisi, cherkov va dunyo munosabatlarini, madaniy tartibni, shuningdek, bu muammolarning yechimi va rivojlanishining tasavvurini ifodalovchi diniy leksika.[3]

[1] Qo‘shoqova B. Diniy leksikani o‘rganishda turli yondashuvlar / TDPU Ilmiy axborotlari jurnali. 2020-y, 6-son – B. 237.

[2] Улуқов Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. ном. диссер. автореферати. – Тошкент, 1997.

[3] Mechkovskaya N.B. Yazik i religiya. – M.: Grand, 1998. - S. 33.

Jahon tilshunosligi bilan bir qatorda o‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda diniy leksikani turli jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar soni sezilarli darajada ortdi. Biz e’tiborimizni qaratayotganimiz tasavvuf leksikasi M.Axatova[1] tomonidan, diniy-mifologik leksika esa M.Galiyeva[2] tomonidan tadqiq etilgan. M.Axatova o‘z ishida o‘zbek tilining tasavvuf ilmiga xos leksika yaxlit sistemadan iboratligini, uning qamrovi quyidagi mavzuiy guruhlar majmuini tashkil etishini aniqlaydi: 1)Alloh Taoloning tasavvufiy asarlarda kelgan go‘zal ismlari; 2)Rasulolloh Muhammad (s.a.v.)ning nomlari; 3)shar’iy tushunchalarni ifodalovchi istilohlar; 4)tasavvuf tariqatlarining nomlarini ifodalovchi istilohlar; 5)sayru suluk tushunchalarini ifodalovchi istilohlar; 6)shaxs ma’nosini ifodalovchi istilohlar; 7) ishq bilan bog‘liq tushunchalarning ifodalanishi; 8) tasavvufiy ilmlar nomlarini ifodalovchi istilohlar; 9) raqam ifodalovchi so‘zlar semantikasi; 10) rang ifodalovchi so‘zlar semantikasi; 11) hayvon nomlarini ifodalovchi so‘zlar semantikasi; 12) moddiy unsurlarni ifodalovchi istilohlar.

Olima tasavvuf ilmidagi muhim tushunchalarni ifodalovchi istilohlarning 70% ini arabcha so‘zlar va ular ishtirokida hosil qilingan yasalmalar va birikmalar tashkil etishini e’tirof etadi. Ushbu tadqiqot ishini o‘qir ekanmiz, haqiqatdan ham, tasavvuf leksikasi bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida zalvorli ish amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz. Dissertatsiyada diniy - tasavvufiy manbalarda ko‘p qo‘llaniladigan iboralarga ham misollar keltirilgan bo‘lib, ulardan biri «roziallohu anhu» birikmasidir. Uning ma’nosi «Alloh undan rozi bo‘lsin» demakdir. Hamda u islom olamida o‘tgan buyuk insonlarning nomlariga qo‘shilib keladi. Hazrati Umar (r.a.) shunday deb aytdilar: «Duo to Payg‘ambar salollohu alayhi vasallamga salovat aytilmaguncha osmonning ostida to‘silib qoladi, bas, qachonki Payg‘ambar salollohu alayhi vasallamga salovat aytilsa, duo ko‘tariladi»[3].

Duo leksemasi diniy leksikada ham, tasavvufiy leksikada ham birdek faol qo‘llanadi. Negaki Islom falsafasiga ko‘ra duo mislsiz kuch-qudratga ega, yaratgan va banda o‘rtasidagi yagona muloqot vositasi sanaladi. «Duo» so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, iltijo, chaqirish, da’vat degan ma’nolarni bildiradi. O‘TILda unga quyidagicha ta’rif beriladi: «Duo – xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o‘zi yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash. Ko‘pchilikning duosi ko‘l bo‘lur (Maqol). O‘zbek tilida uning duoyi jon (kimsaga umr va yaxshilik tilab qilinadigan duo), duoyi xayr (yaxshilik tilab qilingan duo), duoyi bad (yomonlik tilab qilingan duo, qarg‘ish), duo qilmoq, duoda bo‘lmoq, duoyi salom, duogo‘y (duo qiluvchi, xayrixoh), duotalab (duo izlovchi, duoga muhtoj), duoxon (duolar o ‘qib yoki yozib, go‘yo ins-jinslarni qaytaruvchi, shu yo‘l bilan kasallarni davolovchi shaxs, issiq-sovuqchi, azayimxon) kabi ma’nolari bor.

Diniy leksika tadqiqi rivojiga o‘zining «Ma’rifatnoma» asari bilan beqiyos hissa qo‘shgan tilshunos olim J.Omonturdiyev duoga «qalbdan ko‘chgan iltijo» deya ta’rif beradi. Inson qadimdanoq yuz beradigan baxtsizlik yoki mushkulot (o‘lim, o‘lim bilan bog‘liq oxirat azobi, biror tabiiy ofat kabi)larni bartaraf qilish uchun «yuqori kuchlar»dan yoki Allohdan madad so‘ragan. Ana shu iltijo matnlari (ibora yoki nutq) bora-bora og‘izdan-og‘izga o‘tib, keyinchalik duo maqomini olgan. Masalan, zilzila vaqtida «Subhonalloh» deyish yoki «Zalzala» surasini o‘qish kabi. Safar yoki urushga ketayotganlarga «Oy borib, omon qayt, sog‘ borib, salomat qayt» (qadimgi greklarda qalqonda borib, qalqonda qayt), «Olgin, oldirma; to‘kkin, to‘kilma», «Yo‘ling oq bo‘lsin, Alloh yor, pirlar madadkor, Hizr alayhissalom jilovdor bo‘lsinlar. O‘lganlarga nisbatan «Alloh rahmatiga olsin; g‘ariqi rahmat, shohistai jannat qilsin; oxirati obod bo‘lsin», «Xudo bandam desin, Muhammad ummatim desin, chahoryorlar do‘stim desin, Ibrohim Xalilulloh millatim desin, Imomi A’zam mazhabim desin» kabi iboralar orqali dou qilingan.[4]

Diniy va tasavvufiy leksika bilan birga mifologik leksika ham mavjud bo‘lib, ular asosan, badiiy uslubda, xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari sanalgan dostonlarda keng qo‘llanadi. Xalq dostonlarida qahramonlar biror qiyinchilikka duch kelganlarida, mushkul ahvolda qolganlarida ko‘pincha aziz avliyolardan, pirlardan madad so‘rashadi. O’zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, «Alpomish», «Kuntug‘mish», «Rustamxon» hamda «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyo xalqlarining pari, jin va shayton, dev, alvasti haqidagi tasavvurlari bir-birlariga ancha o‘xshash. Bu g‘ayritabiiy mavjudotlar o‘z xislatlari, odamlarga bo‘lgan munosabatlariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: birinchi guruhga odamlarga homiylik qiluvchi, ayni vaqtda ularga zarar va xastalik keltiruvchilar kiradi. Ularga zarar-zahmatdan qurbonlik orqali xalos bo‘lish va rahm-shafqatga ega bo‘lish mumkin bo‘lgan ruhlar mansub, mozorlarda yashaydigan arvohlar, ruhlar, o‘t-o‘choqlar bilan bog‘liq diniy tasavvurlar va marosimlar misol bo‘la oladi. Ikkinchi

[1] Ахатова М. Ўзбек тили тасаввуф лексикасининг систем тадқиқи: Филол. фан. док. (DSC) диссер. – Тошкент, 2021.

[2] Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши: Филол.фан.доктори (DSc) дисс.автореф. – Фарғона: ФарДУ, 2019.

[3] Али ибн Султон Муҳаммад Ал-Қорий Ал-Маккий Ал-ҳанафий. Исми аъзам. (Дуолар тўплами). – Тошкент: Моваро-уннаҳр, 2004. – Б. 389.

[4] Омонтурдиев Ж. Маърифатнома. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2013. – 132 б.

guruhga insonlarga ziyon keltiruvchi alvasti, ajina, dev, alomaon, sarikiz, olmoz kabi ruhiy mavjudotlar kiradi. Uchinchi guruhga esa inson bilan o‘ziga xos tarzda munosabatda bo‘la oladi, deb tushuniladigan parilar kiradi.[1] Bizningcha, bu kabi qarashlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi insonlarning o‘zini qurshab turgan olamni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari, biror tabiiy ofat, ochlik, yovvoyi hayvonlardan himoyalanish jarayonidagi g‘ayritabiiy kuchlar borligiga bo‘lgan ishonchlari mahsuli sanaladi.

O‘zbek folklorida «Avesto» afsonalariga aloqador Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar; suv kulti bilan bog‘liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol „piri» sifatida tasavvur qilingan Haydar, Yalli momo, Yalang‘och ota, Choymomo; xalq taqvimiga aloqador Ayamajuz, Aziz momo, Ahman Dahman; momaqaldiroq va chaqmoq «egasi» Guldur momo; afsonaviy pahlavonlar sifatida tasvirlanuvchi Odami Od, Olang‘asar, Doroko‘z; yovuz kuchlar haqidagi qarashlarni o‘zida ifoda etgan alvasti, yalmog‘iz kabi ko‘pgina mifologik obrazlar mavjud. Pari, alvasti, yalmog‘iz obrazlari ko‘pincha ayol kishi qiyofasida tasvirlangan. O’TILda pariga quyidagicha ta’rif berilgan: forscha – go‘zal ayol; yaxshilik qiluvchi ruh. Sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan, juda go‘zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni ins-jinslardan saqlaydigan afsonaviy obraz, go‘zallik ramzi. *Bukri domla maynani jinmi, parimi deb o‘yladi, shekilli, turgan joyidan siljimay, allaqanday duoni pichirladi. Sh.Toshmatov, Erk qushi.*

Tilshunos olima Sh.Maxmaraimova Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda ayol vasfiga tashbeh o‘rnida qo‘llaniluvchi «pari» metaforasining teomorf metaforalar orasida genezisi «salbiy»dan «ijobiy»ga qarab transformatsiyalangan obrazligini, pari obrazining turkiy xalqlar madaniyatida ayol tushunchasini ifodalashga xizmat qiluvchi lingvokulturema ekanini qayd etadi. Darhaqiqat, pari obrazi o‘zbek lingvomadaniyatida ijobiy ma’noda qo‘llanuvchi, kishilarga yordam beruvchi obraz sifatida tasvirlanadi. Badiiy uslubda esa, asosan, go‘zal yor ta’rifida, o ‘ziga xos o‘xshatishlar yordamida ifodalanadi.

Diniy-mifologik leksikani dunyoning lisoniy manzarasi doirasida o‘rgangan M.R.Galieva teolingvistika bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishida diniy mifologik markerlangan leksik birliklarni quyidagicha guruhlarga ajratadi: umumdiniy leksika; dinlar, konfessiyalar, ta’limotlar va aqidalar nomlari; ibodat tarzi xarakteridagi terminologiya; diniy marosimlarni nomlovchi leksikasi; umumdiniy mavhum (irreal) leksika; diniy markerlangan antroponim va toponimlar.[2]

Mifologik leksikaning paydo bo‘lishi, shakllanish va taraqqiyot bosqichlari anchayin qadimgi davrlarga borib taqaladi. G’arbda ham, Sharqda ham yer yuzining, eng qadimgi insonlarning yaratilishi haqida turlicha mifologik qarashlar, nazariyalar mavjud. Insonlar har doim o‘zlari astoydil ishongan yoinki ishonishni xohlagan mifologik obrazlar talaygina bo‘lib, shunday mifologik obrazlardan yana biri Semurg‘ hisoblanadi. Sharq xalqlari og‘zaki poetik ijodida Semurg‘ afsonaviy baxt qushi bo‘lib,u osmonda uchish, uzoq manzilni yaqin qilish borasidagi asriy orzu-umidlarning ifodasi sifatida talqin qilingan. Dastlab Eron mifologiyasida paydo bo‘lgan, «Avesto»da «senemurg» shaklida ishlatilgan. Semurg‘ o‘zbek xalq ertak va afsonalarida ijobiy qahramonning do‘sti, himoyachisi, hamrohi, uni «yetti zulmat ichidan olib chiquvchi» fantastik qush sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonidagi qushlar timsolida ham Semurg‘ asosiy ramziy obrazlardan hisoblanadi. Doston tasavvufiy xarakterda bo‘lib, undagi Semurg‘ majoziy ma’noda haqqa yetishish timsoli sanaladi.

Turkiy xalqlarda Semurg‘ning Humo, Anqo (afsonaviy qush, u insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydi, qanoti, pati oltin, kumush va boshqadan deb ta’riflanadi. Taqchil, kamyob narsalar haqidagi «anqoning urug‘i» degan ibora shundan olingan), Davlat qushi, Baxt qushi, Marqumomo, Kuntubulg‘on, Bulbuligo‘yo va boshqa variantlari bor. Semurg‘ obrazi «Qahramon», «Oynai jahonnamo», «Rustam», «Kenja botir» kabi ertaklarda keng tasvirlangan.

Xulosa o‘rnida shuni ayta olamizki, diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika go‘yo bir daraxtning turlicha shoxlari, ularning ildizi, kelib chiqish asosi bir. Shuning uchun ularning orasiga katta chegara qo‘yishimiz joiz emas nazarimizda. Ammo ularning og‘zaki yoki yozma matnlarda, diniy manbalarda qo‘llanishiga alohida e’tibor berishimiz, ma’nolar orasidagi nozikliklarni chuqur anglagan holda ishlatishimiz zarur.

Resume: Ushbu maqolada diniy leksika, tasavvufiy leksika va mifologik leksika talqiniga doir muammolar haqida atroflicha fikr bildirilgan va qo‘llanishiga oid misollar keltirilgan.

Резюме: В данной статье обсуждаются проблемы, связанные с интерпретацией религиозной лексики, мистической лексики и мифологической лексики, и приводятся примеры их использования.

[1] Махмараимова Ш.Т., Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти, Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018.

[2] Galieva M.R. Teolingvistika. Istoki, napravleniya, perspektivi. – Tashkent: VneshInvestProm, 2018. – ss. 64-86.